O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI DENOV TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

Denov tumani, Sh.Rashidov ko’chasi 238-uy, 190500, tel: 0(376)413-18-97, faks: 0(376) 413-10-88, denov.t@exat.uz

2024 - yil 27 - may 221-8-111-Q/24 Denov tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Aholiga dehqon xo‘jaligini tashkil etish uchun ijara huquqi asosida ajratilayotgan yer maydonlaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 1-fevraldagi 62-son qarori hamda Surxondaryo viloyat hokimining 2024-yil 10–maydagi 391-8-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Aholiga dehqon xo‘jaligini tashkil etish uchun ijara huquqi asosida ajratilayotgan yer maydonlaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2024-yil 1-fevraldagi 62-son qarori ijrosini ta’minlash, tumanda ijara huquqi asosida berilgan yer maydonlarida eksportbop mahsulotlar yetishtirish uchun sharoit yaratish, ushbu yer maydonlarini doimiy daromad keltiruvchi aktivlarga aylantirish va bu sohada qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Aholiga dehqon xo‘jaligini tashkil etish uchun ijara huquqi asosida ajratilayotgan yer maydonlaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 1-fevraldagi 62-son qarori hamda Surxondaryo viloyat hokimining 2024-yil 10–maydagi 391-8-0-Q/24-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qaror bilan:

Meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan tumanlarda aholiga ijara huquqi asosida ajratilayotgan yer maydonlarida mahsulot yetishtirishdan boshlab uni sotishgacha bo‘lgan zanjirni yaratishni nazarda tutuvchi “kooperativ” va “agregator” tizimiga asoslangan kamida bittadan loyihani tajriba tariqasida kichik biznesga ko‘maklashish markazlari (keyingi o‘rinlarda markazlar) orqali amaliyotga joriy etilganligi;

dehqon xo‘jaliklari va yuridik shaxslarning birlashib egalik qiladigan, pay usuliga asoslangan hamda a’zolarining moddiy va boshqa ehtiyojlarini qondirish uchun qishloq xo‘jaligida faoliyat yurituvchi va ular tomonidan yetishtirilgan mahsulotni sotib oluvchi, qayta ishlovchi va eksportga chiqaruvchi “agregator” tizimini yo‘lga qo‘yilganligi;

quyidagilar:

dehqon xo‘jaligini tashkil etish uchun ijara huquqi asosida ajratilayotgan yer maydonlarida qishloq xo‘jaligi kooperativlarini tashkil qilish va faoliyatini rivojlantirish, dehqon xo‘jaliklarining mahsulotni sotib oluvchi, qayta ishlovchi va eksportga chiqaruvchi agregatorlar bilan hamkorligini kengaytirish;

qishloq xo‘jaligi kooperativiga birlashgan dehqon xo‘jaliklari bilan agregatorlar o‘rtasida “buyurtmalar portfeli”ni shakllantirish orqali shartnoma institutini rivojlantirish;

dehqon xo‘jaliklari va aholi tomorqalariga urug‘lik materiallari, mineral o‘g‘itlar, kimyoviy vositalarni yetkazib berish hamda agronom xizmatlarini ko‘rsatishning yaxlit tizimini yaratish;

dehqon xo‘jaliklarining yer maydonlarida xalqaro sifat va standartlarga javob beradigan mahsulotlarni yetishtirish;

xalqaro va mahalliy ekspertlarni keng jalb etgan holda, qishloq xo‘jaligi kooperativi a’zolari va dehqonlarning malakasini doimiy oshirib borish;

agronom maslahati va xizmatlarini ko‘rsatish markazlarini tashkil etish;

mahsulotlarning barqaror bozorini shakllantirish;

mahsulotlarni xalqaro sertifikatlashdan o‘tkazuvchi tashkilotlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, qishloq xo‘jaligi kooperativlari va agregatorlarga xalqaro sertifikatlar (Global G.A.P, organik va boshqalar) olishi uchun har tomonlama ko‘maklashish “kooperativ” va “agregator” tizimiga asoslangan loyihalarni amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari etib belgilanganligi;

Aholiga dehqon xo‘jaligini tashkil etish uchun ijara huquqi asosida berilgan yer maydonlarining elektron hisobini yuritish va monitoring qilish, mahsulotni yetishtirishdan boshlab uni tashqi bozorda sotishgacha bo‘lgan jarayonni o‘z ichiga olgan “kooperativ” va “agregator” tizimini joriy etish bo‘yicha respublika ishchi guruhi tarkibi tasdiqlanganligi;

meva-sabzavotchilikka ixtisoslashgan tumanlarda 2022-2023-yillarda dehqon xo‘jaligini tashkil etish uchun ajratilgan yer maydonlarida “kooperativ” va “agregator” tizimiga asoslangan loyihalami joriy qilishning prognoz ko‘rsatkichlari;

bir oy muddatda dastlabki bosqichda dehqon xo‘jaligini tashkil etish uchun ajratilgan yer maydonlarini ijaraga berish shartnomalariga ijara muddatini 10 yildan 30 yil muddatga uzaytirish bo‘yicha o‘zgartirish kiritgan holda ularning qayta rasmiylashtirilishini ta’minlash belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Quyidagilar:

Tumanda aholiga dehqon xo‘jaligini tashkil etish uchun ijara huquqi asosida berilgan yer maydonlarining elektron hisobini yuritish va monitoring qilish, mahsulotni yetishtirishdan boshlab uni tashqi bozorda sotishgacha bo‘lgan jarayonni o‘z ichiga olgan “kooperativ” va “agregator” tizimini joriy etish bo‘yicha tuman ishchi guruhi tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

tumanda dehqon xo‘jaligini tashkil etish uchun ajratilgan va ijara muddati 10 yildan 30 yil muddatga uzaytiriladigan yer maydonlari hajmlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Rasulov, tuman hokimining o‘rinbosari S.Sayidaxmedov, tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (I.Ismoilov), tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi (Sh.Sadikov), Qishloq xo‘jaligida xizmatlar ko‘rsatish agentligining tuman bo‘limi (Lavozimiga ko‘ra), tuman Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi (A.Narzullayev), Davlat kadastrlari palatasi tuman bo‘limi (T.Ismoilov) ga:

Biznesni rivojlantirish banki va hamkor banklar bilan birgalikda tumanda aholiga ijara huquqi asosida ajratilayotgan yer maydonlarida mahsulot yetishtirishdan boshlab uni sotishgacha bo‘lgan zanjirni yaratuvchi

“kooperativ” va “agregator” tizimiga asoslangan kamida bittadan loyihani tajriba tariqasida amaliyotga joriy etish;

qishloq xo‘jaligi kooperativini tashkil etish maqsadida yaxlit konturlar asosida yer maydonlarining yer tuzish loyihalarini ishlab chiqish va elektron onlayn auksion savdolari orqali ijaraga berilishini ta’minlash;

dehqon xo‘jaliklari yerlaridan samarali foydalanish loyihasini ishlab chiqish;

“kooperativ” va “agregator” tizimi joriy qilinadigan yer maydonlari hajmini konturlar kesimida aniqlash;

ekin maydonlarning holati, hosildorligi, zarur infratuzilma bilan ta’minlanganligini o‘rganish;

suv ta’minotini yaxshilash, jumladan, suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalarini joriy qilish, vertikal sug‘orish quduqlarini burg‘ilash va ishga tushirish ishlarini moliyalashtirish;

mahallalarning ixtisoslashuvi, yer egalarining xohishlari va mavjud tajribalaridan kelib chiqqan holda qishloq xo‘jaligi ekinlarining “bir kontur - bir mahsulot” tamoyili asosida ekilishini ta’minlash;

dehqon xo‘jaliklarining qishloq xo‘jaligi kooperativlariga birlashishiga har tomonlama ko‘maklashish;

“agregator” tizimi joriy qilinadigan yer maydonlarining konturlarida qishloq xo‘jaligi kooperativlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun har bir konturga hokim yordamchilarini mas’ul etib belgilash;

mahalliy hokimliklar va hokim yordamchilari bilan birgalikda aholi va agregatorlar o‘rtasida munosabatlarni o‘rnatish uchun uchrashuv va targ‘ibot tadbirlarini tashkil etish;

hokim yordamchilari tomonidan “Online mahalla” elektron platformasi orqali dehqon xo‘jaligini tashkil etish uchun ijara huquqi asosida ajratilgan yer maydonlarida ekilgan ekinlarning holatini monitoring qilish va ulardan kutilayotgan hosil yuritish tizimini yo‘lga qo‘yish;

dehqon xo‘jaliklari va agregatorlarning qishloq xo‘jaligi kooperativiga ixtiyoriylik asosida a’zo bo‘lishda hamda qishloq xo‘jaligi kooperativida yetishtirilgan mahsulotlarni qayta ishlash, saqlash, ichki bozorga yetkazib berish va eksport qilish ishlarida hokim yordamchilari tomonidan yordam ko‘rsatish tizimini yo‘lga qo‘yish topshirilsin.

5. Suv yetkazib berish DM tuman bo‘limi (T.Abdumurodov) bilan birgalikda:

bir oy muddatda dehqon xo‘jaligi tashkil qilish uchun ijara huquqi asosida ajratilgan yer maydonlarining suv bilan ta’minlanganlik darajasini o‘rganib chiqsin;

dehqon xo‘jaliklari va ular tomonidan suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalari joriy qilingan maydonlarga vegetatsiya davrida suvni kafolatli yetkazib berish maqsadida suv limitlari belgilanishini ta’minlasin.

6. Tuman hokimining o‘rinbosari S.Sayidaxmedov , tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi (Sh.Sadikov), Kadastr agentligi tuman bo‘limi (B.Bobomurodov), Davlat kadastr palatasi tuman bo‘limi (T.Ismoilov)ga:

bir oy muddatda tanlovda turgan va talabgor chiqmagan yer maydonlarini aholi punktlariga yaqin va suv ta’minoti yaxshi bo‘lgan yerlarga almashtirib, shuningdek, eksportbop sabzavot ekinlari eksa bo‘ladigan yerlarni 1 gektargacha bo‘lgan lotlarga ajratgan holda, dehqon xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligi kooperativlarini tashkil etish uchun yer maydoni hajmi kamida 5 gektar bo‘lgan yaxlit konturlarni elektron savdolariga chiqarilishini ta’minlash;

yer uchastkasining ijara muddatiga hisoblanadigan qo‘shimcha to‘lovlarni amalga oshirmagan dehqon xo‘jaliklaridan yer maydonlarini qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda zaxiraga qaytarish va auksion

savdolarga chiqarish choralarini ko‘rish;

bir oy muddatda dastlabki bosqichda dehqon xo‘jaligini tashkil etish uchun ajratilgan yer maydonlarini ijaraga berish shartnomalariga ijara muddatini 10 yildan 30 yil muddatga uzaytirish bo‘yicha o‘zgartirish kiritgan holda ularning qayta rasmiylashtirilishini ta’minlash vazifasi yuklatilsin.

7. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Rasulovga o‘n kun muddatda dehqon xo‘jaliklariga dehqon bozorlarining qulay joylarida yetishtirilgan mahsulotlarini sotish uchun alohida rastalar tashkil etib, sharoit yaratib bersin.

8. Tuman hokimligi Axborot xizmati va “Chag‘oniyon” gazetasi (F.To‘rayeva), tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi (I.Ismoilov), tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi (Sh.Sadikov), tuman Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi (A.Narzullayev)ga mazkur qarorning mazmun-mohiyati hamda maqsad va vazifalarining ommaviy axborot vositalarida keng yoritish tavsiya etilsin.

9. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Rasulov va o‘rinbosar S.Sayidaxmedov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **I.Abrorov**

Denov tuman hokimining
2024-yil 27-maydagi
221-8-111-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Tumanda aholiga dehqon xo‘jaligmi tashkil etish uchun ijara huquqi asosida berilgan yer maydonlarining elektron hisobini yuritish va monitoring qilish, mahsulotni yetishtirishdan boshlab uni tashqi bozorda sotishgacha bo‘lgan jarayonni o‘z ichiga olgan “koperativ” va “agregator” tizimini joriy etish bo‘yicha tuman ishchi guruhi

TARKIBI

1	M.Rasulov	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari, ishchi guruhi rahbari
2	S.Saydahmedov	Tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, ishchi guruhi rahbarining o‘rinbosari
3	I.Ismoilov	Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshlig‘i
4	I.Ikabayev	Mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi rahbari
5	X.Primov	Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i
6	Sh.Sadikov	Tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i
7	B.Bobomurodov	Kadastr agentligi tuman bo‘limi boshlig‘i
8	T.Ismoilov	Kadastr palatasi tuman bo‘limi boshlig‘i
9	A.Narzulloyev	tuman Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi raisi
10	Lavozimiga ko‘ra	Qishloq xo‘jaligida xizmatlar ko‘rsatish agentligining tuman bo‘limi boshlig‘i
11	T.Abdumurodov	Suv yetkazib berish DM tuman bo‘limi boshlig‘i
12	Lavozimiga ko‘ra	Barcha tijorat bank tuman filiallari boshliqlari
13	Lavozimiga ko‘ra	Mahallabay ishlash bo‘yicha hududlarga biriktirilgan ishchi guruh a’zolari

Denov tuman hokimining
2024-yil 27-maydagi
221-8-111-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Tumanda dehqon xo‘jaligini tashkil etish uchun ajratilgan va ijara muddati 10 yildan 30 yil muddatga uzaytiriladigan yer maydonlari

HAJMLARI

T/R	Tuman nomi	Dehqon xo‘jaliklari (lotlar) soni	Yer maydoni hajmi, gektar
1	Denov	4770	4770